

NUTQ A'ZOLARI PERIFERIK TIZIMLARI PATOLOGIYASI.

S.M.Umarova QDPI katta o'qituvchi

Muxtorjonova Iroda Yusufjon qizi

Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola periferik nutq apparatining uch bo'limdan:

1) nafas bo'limi; 2) ovoz bo'limi; 3) artikulyasion bo'limdan iboratligi, kasalliklari: soxta bug'ma, o'tkir tumov, burundagi poliplar, manqalik kasalliklarini etiologiyasi, klinik belgilari, davolash va balalar nutqini rivojlanishdagi ahamiyati, nutq chiqishdagi kamchiliklarni kasallikka bog'liqligi haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: nafas bo'limi; ovoz bo'limi; artikulyatsion bo'lim, soxta bo'g'ma, o'tkir tumov, polip, manqalik, Prognatiya, trogeniya, ochiq prikus yonlama ochiq prikus

Abstract: This article is about three parts of the peripheral speech apparatus:

1) respiratory department; 2) voice department; 3) the composition of the articulatory department, diseases: false goiter, acute flu, polyps in the nose, the etiology, clinical signs, treatment and importance of children's speech development, the dependence of speech defects on the disease.

Key words: respiratory department; sound department; articulating section, false joint

Аннотация: В этой статье речь пойдет о трех частях периферического речевого аппарата: 1) дыхательный отдел; 2) голосовой отдел; 3) состав артикуляционного отдела, заболевания: ложный зуб, острый грипп, полипы в носу, этиология, клиника, лечение и значение речевого развития детей, зависимость дефектов речи от заболевания.

Ключевые слова: респираторное отделение; звуковой отдел; суставной отдел, ложный сустав

Inson nutq organlari markaziy va periferik tizimlari patologiyasi

Nutq sistemasi kasalliklarining etiologiyasi:

- Onaning xomiladorlik davridagi infeksiyon kasalliklar (qizamiq, sitomegaliya, toksoplazmoz, gripp va h.k).

- Onaning yurak-qon tomir va endokrin tizimidagi buzilishlar, xomiladorlikning toksikozlari, homila va ona qonining immunologik to'g'ri kelmasligi, homiladorlik davrida jismoniy va ruhiy jarohatlar, asfiksiyalar, ona qornidagi travmalar.
- Meningit, ensefalit, meningoensefalit, bosh miya travmalari.
- Ona qornidagi paytda va tug'ilgandan keyingi zararli omillarning ta'siri miya suyuqligi va qobig'ida turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu esa kelgusida ularning normal rivojlanishini izdan chiqaradi.

Periferik nutq apparatining patologiyasi. Tanglay kasalliklari. Yumshoq tanglay falaji-ko'pincha bunday holat bolalarda difteriyada kuzatiladi. Yumshoq tanglay umuman, mutlaqo ko'tarilmaydi yoki qisman ko'tariladi. Ayrim hollarda yumshoq tanglayni yarmi falajlanadi, natijada yumshoq tanglayni yarmi ko'tarilib, ikkinchi yarmi qimirlamaydi. Hamma holatda ham yumshoq tanglay o'z faoliyatini bajarmaydi, ya'ni og'iz bo'shlig'ini, og'iz halqum qismini burun halqumdan ajratmaydi yoki qisman ajratadi. Natijada manqalik yuzaga keladi, yutish buziladi-yutilgan suyuqlik burundan chiqadi.

Yumshoq tanglayni falajlanishini aniqlash oson, buning uchun bolaga «a»... degan tovushni chiqarishni so'rab, yumshoq tanglayni harakati kuzatilsa, quyidagilarni ko'rish mumkin: ikki tomonlama yumshoq tanglayni falajida yumshoq tanglay osilib turaveradi yoki bir yoni ko'tarilishi mumkin (bir tomonlama falajlanishda). Bir tomonlama falajlanishida tilcha sog' tomonga tortiladi.

Davolash. Difteriya tufayli falaj hech qanday davosiz o'tib ketadi. Tiklanishni medikamentsiz davo, elektr bilan davolash tezlashtiradi. Falaj turg'un bo'lsa - muntazam logopedik mashqlar o'tkaziladi.

Tildagi nuqsonlar kam uchraydigan til anomaliyalariga tilning butunlay bo'lmasligi-aglosiyani misol qilish mumkin. Bu esa tovushlar talaffuzining buzilishiga olib keladi. Til juda kichkina bo'lishi mumkin (mikroglosiya), yoki haddan tashqari katta bo'lishi mumkin (makroglosiya)-til og'izga sig'may, tishlarni orasidan o'tib tashqariga chiqadi.

Nuqsonlardan ko'p uchraydigani-tilni yugani kalta bo'lishi natijada tilni harakati erkin bo'lmaydi, cheklanib qoladi, natijada nutq buzilib, bola duduqlanib gapiradi. Yuganini kesish bu nuqsonni bartaraf etadi

Burmalar osti laringiti (soxta bo'g'ma).

Bu o'tkir kataral laringitni bir turi bo'lib, tovush burmalar osti bo'shlig'ida hosil bo'ladi. Odatda 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi.

Bu bolalar xiqildog'ining anatomik tuzilishi–teshigini torligi va burmacha osti bo'shlig'i kletchatkasining g'ovakligiga bog'liq. Kasallikning boshlanishi odatda burun yoki xiqildoq shilliq pardasining o'tkir yallig'lanishi bilan bog'liq. Sohta bo'g'ma laringospazmiga moyilligi–diatez bilan kasallangan bolalarda ko'proq uchraydi.

Belgilari: sohta bo'g'ma odatda to'satdan, yarim kechada, quv-quv yo'tal huruji bilan boshlanadi. Bola uyg'onib, o'rinda bezovtalanadi. Bunday paytda, nafas olish hushtak chalgandek shovqinli, qiyinlashgan bo'ladi, inspirator hansirash yuzaga keladi. Tirnoqlar va ko'rinib turadigan shilliq pardalar ko'karib ketadi. Qo'rquvdan bolani yo'tali yanada zo'rayadi. Tekshirishda quyidagilar ko'riladi–bo'yintiriq chuqurchasi, o'mrov usti va o'mrov osti bo'shliqlari, epigastral soha yumshoq to'qimalarining ichiga tortilganligi aniqlanadi. Bu holat bir necha minutdan to yarim soatgacha davom etadi. Shundan keyin bola g'araq-g'araq terlaydi, nafas olishi normallashadi, bola uyquga ketib, ertalab sog'lom uyg'onadi.

Ammo kasallik huruji bir necha kundan yoki 1-2-xaftadan keyin yana qaytalashi mumkin. Nafas olishning buzilishi va yo'tal doimiy bo'lishi mumkin.

O'tkir tumov–burun bo'shlig'ini shilliq pardasining o'tkir yallig'lanishi. Bu ham bolalarda, ham kattalarda ko'p uchraydigan kasallikdir. O'tkir tumovni sababi–organizmning mahalliy va umumiy qarshilik kuchini pasayib ketishi va burun bo'shlig'idagi patogen mikroblar faolligini oshishidir. Asosan bu umumiy sovqotish, oyoqdan sovuq o'tib organizmning himoya–reflektor mexanizmlarini buzadi. O'tkir tumov boshlanayotganda burun va halqum quriydi, achishadi, burundan nafas olish qiyinlashadi, ko'z yoshlanadi, bosh og'riydi, aksa urish bezovta qiladi. Behollik, et uvishishi, ba'zan ko'z sohasida, peshona sohasida og'riq paydo bo'ladi. Tana harorati ko'tariladi. Burun bo'shlig'ining shilliq pardasi yallig'lanishi natijasida qalin tortadi, bu esa burundan nafas olishni qisman yoki butunlay berkitib qo'yishi mumkin. Hid sezish, ta'm bilish ham pasayadi, bemor manqalanib gapiradi. Birinchi kunlardan boshlab ko'p miqdorda tiniq suyuqlik ajraladi. Kasallikni 4–5chi kunlarida ajralayotgan suyuqlik avvaliga qo'ng'ir, so'ngra sariq rangda bo'ladi. Bir necha kun o'tgach burundan ajralayotgan suyuqlik miqdori kundan–kun kamayib, shilliq pardadagi shishlar qaytadi, burundan nafas olish va hid sezish tiklanadi, 8–14 kundan keyin kasallik tuzaladi. Yosh bolalarda Yevstaxiy naychasi qisqa va keng bo'lganligi sababli, o'tkir yallig'lanish halqumdan o'rta quloqqa o'tishi mumkin va quloqning yallig'lanishiga olib kelishi mumkin.

Davolash. Organizmni sovuq va issiqqa, namlik va quriqlikka chidamini oshirish zarur. Bolalar havo qanday bo'lishidan qat'iy nazar, havoda o'ynashlari, yurishlari kerak. Kiyimi juda issiq ham, juda yupin ham bo'lmasligi kerak. Havoda

o'tkaziladigan gimnastik mashg'ulotlar juda foydalidir; yozgi, qishki sport bilan shug'ullanish juda ham yaxshi natija beradi.

Burundagi poliplar—ular doirasimon o'smalardan iborat ingichka oyoqchasi bo'ladi, rangi kul rang yoki sarg'ish—qizil rangda, yuzasi silliq bo'ladi, qattiq-yumshoqligi mayda va ko'p miqdorda bo'ladi. Nohotdek yoki bitta katta bo'lib, burun yo'lining hammasini egallashi mumkin. Bemorni shikoyatlari—nafas olishni keskin ravishda qiyinlashuvi. Burun berkligi tufayli bemor manqalanib gapiradi, tez—tez boshi og'rib turadi. Eshitish qobiliyati pasayishi mumkin. Davolash—xirurgik yo'l orqali.

Manqaliq—deb ovoz tembrini patologik o'zgarishga va so'zdagi tovushlar talaffuzini buzilishiga aytiladi, bunday patologiya ovoz va nutq hosil bo'lishida burun bo'shlig'ining ishtiroki buzilishi natijasida yuzaga keladi. Manqalikni ikkita shakli ajratiladi:

1. Ochiq.
2. Berk.

Ochiq manqalikda tovushlarni talaffuz qilayotganda havo faqat og'izdan emas, balki burundan ham o'tadi.

Berk manqaliqda—havo faqat og'izdan o'tadi. Burunni ikkala katagini atreziyasida yoki boshqa turlarida patologiyani—burun yo'llarini berkilishiga olib keladigan—burun rezonansini qisman yoki butunlay izdan chiqaradi va berk manqalikka olib keladi. Ovozni bir qator obertonlari yo'qoladi, ovoz past bo'ladi. Burun ishtirokida talaffuz qilinadigan tovushlar buziladi: «m» va «n» o'rniga «b» va «d» (malika—balika; nyanya—dyadya). Kar—soqovlarda ham berk manqalik kuzatiladi, chunki ular tovushlarni eshitish orqali to'g'rilay olmaydilar.

Davolash. Operasiya usuli bilan; keyin logoped shug'illanadi. Funksional manqalikda (kar soqovlikda) logopedik ishlar yordamida to'g'irlanadi. Tovushlarni talaffuz etishda burun bo'shlig'i ishtirok etmaydigan—normada yumshoq tanglay halqumni orqa devoriga yopishib, halqumni og'iz qismini burun qismidan ajratadi, talaffuz qilishda hosil bo'lgan havo og'iz tomon o'tadi va nutq normal tembrga ega bo'ladi. Agar havoning ko'proq qismi burunga o'tib ketsa, manqalik yuzaga keladi, shunday holat qattiq tanglayni yorig'ida, yumshoq tanglay kalta bo'lib qolganda, yumshoq tanglayni parezi va falajlanishida kuzatiladi. Ochiq manqalik funksional ham bo'lishi mumkin, masalan, kattalashib ketgan yumshoq tanglay pardalari orasidagi murtaklar xirurgik yo'l bilan olib tashlanadi. Manqalik yo'qoladi. Ochiq va yopiq manqalik kar—soqovlarda kuzatiladi.

Logoped operatsiyadan oldin va undan keyin muntazam ravishda bemor bilan shug'ullanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O'quv darslik. T., TDPU – 2013.
2. Minavvarovna, Umarova Sabohon. "Psycho-physiological characteristics of the development of speech-impaired children." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3 (2023): 524-529.
3. Umarova, S., A. Ortikova, and M. Axmedova. "CONDITIONS FOR THE OCCURRENCE OF CONFLICTS IN LABOR TEAMS AND METHODS OF CONFLICT ANALYSIS." Science and innovation 2.B1 (2023): 326-333.
4. Umarova, S. M. "ZO'RAYIB BORUVCHI MUSHAK SISTEMASI KASALLIKLARI." Confrencea 12.12 (2023): 41-47.
5. Umarova, S. M. "Sezgi funksiyalarining buzilishlari." Confrencea 12.12 (2023): 33-40.
6. Umarova, Sabohon, and Iroda Muxtorjonova. "SPECIAL HELP NEEDED CHILD CATEGORIES." Models and methods in modern science 2.11 (2023): 48-52.
7. Umarova, Sabohon, and Gulliza Mashrabbaeva. "DISORDERS OF SENSORY FUNCTIONS." Академические исследования в современной науке 2.22 (2023): 75-79.
8. Umarova, Sarvinoz. "FORMATION OF TOLERANCE IN STUDENTS BY MEANS OF A FOREIGN LANGUAGE." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 4.04 (2023).
9. Muxamadieva, Lola Atamurodovna, Saodat Sulaymonovna Umarova, and Saodat Umordjonovna Ruzmetova. "O'TKIR REVMATIK ISITMA: REVMATIK XOREYA PATOGENEZI HAQIDA ZAMONAVIY QARASHLAR (ADABIYOTLAR SHARHI)." Results of National Scientific Research International Journal 2.3 (2023): 142-148.
10. Umarova, S. M. "First Aid for Bleeding." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.1 (2023): 172-175.

31.10.2024, UNITED KINGDOM

<https://conferencea.one>

11. Minavvarovna, Umarova Saboxon. "THE MAIN TYPES OF HUMAN WORK AND THEIR IMPACT ON THE HUMAN BODY." *Journal of new century innovations* 20.4 (2023): 74-78.
12. SAIDAKHMATOVA SADOKAT . Teacher of the Department of Social Sciences, TSPU "NAVIGATING THE DIGITAL FRONTIER: UNDERSTANDING DIGITAL CIVILIZATION AND TRANSFORMATION " International scientific and practical conference "Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches" March 13, 2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10806295> 698-702
13. Turg'unboyeva, Zulxumor, and Saminaxon Odiljonova. "ESHITISH VOSITASINING ISHLASH TAMOYILI VA ESHITISH APPARATINING ASOSIY TUZILMALARI." *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences* 3.2 (2024): 146-151.
14. Muhammadjonova, Dilafruz. "ISSUES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TEACHING WEAK HEARING CHILDREN TO WRITE." *Science promotion* (2023).
15. Muhammadjonova, Dilafruz. "SPEECH DEVELOPMENT OF DEAF CHILDREN." *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* (2023).
16. Ibragimova, D. A. "SOCIALIZATION OF CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 1079-1085.
17. Qizi, Turgunbayeva Zulkhumor Ibrahimjon. "CAUSES OF HEARING DEFECTS AND DESCRIPTION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 653-656.
18. Ibragimovna, Turg'unboyeva Zulxumor. "ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARNI NUTQIY SIFATLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 131-138.
19. Turg'unboyeva, Zulxumor, and Saminaxon Odiljonova. "ESHITISH VOSITASINING ISHLASH TAMOYILI VA ESHITISH APPARATINING ASOSIY TUZILMALARI." *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences* 3.2 (2024): 146-151.
20. Nigina, Abdunazarova, and Yolchieva Dilfuza. "TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SPEECH LOGIC IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

31.10.2024, UNITED KINGDOM

<https://conferencea.one>

WITH STUDENTS OF SPECIAL INSTITUTIONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 1086-1090.

21. Мелибоев, Таваккал. "ПРИНЦИПЫ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.20 (2023): 37-40.

22. Tavakkal, Meliboyev. "BONE FRACTURES IN EMERGENCY SITUATIONS. IMMOBILIZATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 357-363.

23. Muhammadjonova, Dilafruz. "Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning sezgi va idrok xususiyatlarning o'ziga xosligi." Science promotion (2023).

24. Turg'unboyeva, Zulxumor, and Nigora Bekmirzayeva. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Solution of social problems in management and economy 3.1 (2024): 202-207.

25. Raximova, Muniraxon Ilxomovna, and Dilobarxon Muxammadaliyeva. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA LOGORITMIKANING O'RNI." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 1. 2023.

26. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "BO'LAJAK LOGOPEDLARNI MAXSUS MAKTAB BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TUZATISH ISHLARINI USULLARI." Confrencea 12.12 (2023): 70-78.

27. Daughter, Musayeva Farangiz Norbek. "Laws of mental development of children with hearing impairment." Science Promotion 1.1 (2023): 36-43.

28. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "THE IMPORTANCE OF USING FAIRY TALE THERAPY IN THE PRIMARY CLASSES OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION." Scienceweb academic papers collection (2023).

29. Xonbabayeva, Madinabonu, and Nigora Mirzaolimova. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IBORALI NUTQNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI." Development and innovations in science 2.4 (2023): 14-18.

30. Xonbabayeva, Madinabonu. "NUTQ BUZILISHI BO'LGAN BOLALAR UCHUN IKKI TILLI TA'LIM ASOSLARI." Наука и инновация 1 (2023): 231-234.

31.10.2024, UNITED KINGDOM

<https://conferencea.one>

31. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISHI QONUNIYATLARI." *Confrencea 12.12 (2023): 61-69.*
32. Xanbabayev, Shohruhbek. "BO 'LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNI MA'NAVIY-RUHIY TARBIYA FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI." *Scienceweb academic papers collection (2022).*
33. Xanbabayev, Shohruhbek. "Socio-Pedagogical Basis of Spiritual and Spiritual Education Mechanisms in Society and Foreign Experiences." *Scienceweb academic papers collection (2022).*
34. Dilshodjon o'g'li, Khanbabayev Shokhrukhbek. "Of national and general cultural competencies in students based on a competent approach importance." *Confrencea 12.12 (2023): 89-93.*